

AMIR TEMUR DAVRIDA SHAHRISABZ

Uzoqov Rahmatilla Shuhratovich

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar 4-IDUM tarix fani o'qituvchisi

+998975887787

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur davrida Shahrisabz shahridagi amalga oshirilgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz, Amir Temur, Samarqand, Movarounnahr, Buyuk Ipak yo'li. Shahrisabz - Amir Temur shahri, bu yerda hamma narsa u yoki bu tarzda uning nomi bilan bog'liq. Bu yerda uning otasi Muhammad Tarag'ay va ma'naviy ustози Shamsiddin Kulol ko'milganlar, bu yerda uning katta o'g'illari Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzolar go'ri joylashgan. Ulug' Sohibqironning o'zi ham uning joni shu yerda arshi a'loga uchib ketadi, deb o'ylagan edi. Hattoki maqbarani ham tayyorlab qo'ydi. Lekin taqdir buni boshqacha hal etdi. Ulkan Movarounnahr davlatini yaratgan va uning cheklanmagan hukmroni - amiri bo'lgan Temur Samarqandni o'z poytaxti sifatida tanladi. Lekin o'zining tug'ilib o'sgan kichik vatanini ham hech qachon unutmay, doimo unga g'amxo'rlik qildi. Aslida Shahrisabz davlatning ikkinchi poytaxti edi. Temurning avlodi, Buyuk imperiya Boburiylar sulolasining asoschisi Bobur yozishicha: «Kesh shahri Temurbekning tug'ilgan joyi bo'lgani uchun, u shaharni taxt zaminiga aylantirish uchun ko'p g'amhurlik qilgan edi». Amirning buyrug'i bilan bu yerga eng yaxshi me'morlar quruvchilar, me'morchilik bezaklarining ustalari yuborilgan, mahalliy ustalar bilan birgalikda ular turli mamlakatlarning tajribasi va an'alarini uyg'unlashtirib, ulug'vor binolarni barpo etganlar. Ularning ijodi bilimlar, tajriba, an'alar va yaratuvchilik urinishlarining yaxlitlashuvi tufayli ajoyib mevalar berdi, ular XIV asr oxiri – XV asr boshi O'rta Osiyo me'morchiligining xususiyatlarini belgilab bergan monumental uslubning asoslarini yaratdilar. Oqsaroy saroyi bayramona hukumat binosi – rezidentsiyaning namunasi bo'lishi mumkin. Saroyning qurilishi 1380-yilda boshlangan, lekin 1404-yilda ham unda pardoiz ishlari tugatilayotgan edi. Bu ulug'vor inshootning o'qsimon gumbazi oralig'i 22 metrdan ortiq bo'lib, temuriylar barpo etgan barcha inshootlar orasida eng antiqadir. Temur va temuriylarning davrida



shahrlarning ansambllar bilan – majmuiy qurilishi keng tarqalgan. Bu Shahrisabzda ham yaqqol ko'rinadi, bu yerda Dorus-Tilovat va Dorus-Saodat ansambllari ajralib turadi. Dorus-Tilovatni sobiq mahalliy xodagonlar maqbarasida saqlanib qolgan uchta inshoot tashkil etadi. Bu Shamsiddin Kulol va Gumbazi Seyidon maqbaralari hamda Ko'k-Gumbaz jome' masjidi inshootlaridir. Shamsiddin Kulol maqbarasi eng birinchi qurilgan. Shayx 1370-yilda vafot etgan bo'lib, uning go'ri izzat-ehtirom qilingan edi. Uning yonida Gumbazi Seyidon – Sayidlar gumbazi nomli Ulug'bek avlodlarining maqbarasi qurilgan. Bu kichik bino o'zining nafis mutanosibligi va chuqur o'ymakor naqshlar bilan qoplangan, ajoyib ishlangan kirish eshigi bilan insonni mahliyo qiladi.[1] Me'morchilik ansamblini mo'g'ullargacha bo'lgan qurilish poydevorida qad ko'targan Ko'k-Gumbaz jome' masjidi tugallaydi. Dorus-Saodat ansambli ham uchta qismidan iborat: Jahongir mirzoning go'ri, Hazrati Imom masjidi va Temurnig maqbarasi. 137- yilda sohibqironning sevimli o'g'li Jahongir mirzo o'lganidan keyin Amir Temur shunday qayg'uga cho'mdiki, «sohibqironning qalbi hamdardlik uchun 30 yil yopiq edi». «Adolatli shahzoda, jasur jangchi, yer yuzida atirguldek ir ko'rinib yo'qolgan» shahzodaning jasadi ajdodlariing vataniga keltirildi, bu yerda uning uchun maqbara qurildi. Keyinroq maqbara oilaviy katta maqbara ichiga kiritilgan edi. Xona ohaktosh bilan qoplangan bo'lib, arkali o'yma tokchalar bo'ylab Qur'ondan olinagn foniy dunyoning bekorligi va boqiy dunyoning g'olibligi to'g'risidagi oyatlar o'yib ishlangan. Masjid va Jahongirning maqbarasiga yaqin joyda faqat Temur uchun mo'ljallangan go'r saqlanib qolgan maqbara bo'lgan, lekin uning o'zi, ma'lumki, Samarqandda dafn etilgan.

Lekin Shahrisabz faqatgina buyuk amirning «taxt zamini» bo'lmagan. Temurning tug'ilishidan ancha ilgari u o'z tarixiga ega edi. Avvalo bu jahonnig eng qadimgi shaharlaridan biri. [2]Olimlarning fikricha, Shahrisabz 2700 yoshda, bu esa «Boqiy shahar» Rimning yoshidir. YUNESKO qaroriga ko'ra aynan shu sana 2002 yilda butun madaniy dunyoda nishonlangan. Tinch davrda shahar hech qanday to'sqinliksiz o'sib rivojlanar edi, bunga uning gavjum Buyuk Ipak yo'lidagi nihoyatda qulay joylashuvi sabab bo'lgan. O'rta asrlar shoiri Mahmud ibn Vali shunday yozgan: «Kesh - Movarounnahr shaharlarida uni jahonning eng go'zal joylaridan biri, juda yaxshi va yoqimli iqlim bo'lgan joy deb hisoblashadi. Uning dalalari va bog'-rog'lari juda jozibali va zavqli». Hurmatli muallif so'zlariga rozi



bo'lmay iloji yo'q. Haqiqatan ham Shahrisabz o'zining «Yashil shahar» ismiga juda mosdir. Qashqadaryo vohasi qadimgi va o'rta asrlar davrida ilm-fan, madaniyat san'at, adabiyot, hunarmandchilik, me'morchilik kabi sohalarning o'chog'i bo'lib xizmat qilgan ma'lum va mashhur hududlardan biridir. Bu hududda o'z hukmronligini o'rnatgan har bir sulola namoyondalari ushbu mintaqada ilm-fan, san'at va madaniyat, hunarmandchilik kabi sohalarni rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdilar. Xususan, Amir Temur va temuriylar davri madaniyatning yuksalishi, gullab- yashnashi, o'tmish davrlardan qolgan ajoyib an'analarning yangi tarixiy vaziyatda qayta tiklanishi uchun sharoit yaratdi. Qashqadaryo vohasining asosiy shaharlari Shahrisabz va Qarshi (Nasaf) XIV-XV asrlarda har jihatdan yuksakdi. Bu ikkala shaharda qadimdan an'anaviy tus olgan ilm-fan va uning taraqqiyotiga katta e'tibor qaratildi. Amir Temur o'z hukmronlik faoliyati davrida o'zi tug'ilib o'sgan shahar va uning atrofida ko'plab obodonlashtirish ishlari olib borib, Keshning madaniy markaz bo'lishiga ko'p ahamiyat berdi.[3] Bu yerda davlat boshqaruviga molik bo'lgan muhtasham saroylar, xorijiy davlatlar elchilarini qabul qilishga mo'ljallangan maxsus qabulxonalar va madrasalar barpo qildi. Bu esa ilmfan va ma'daniyat aksari musulmon olamida yangidan gurkirab rivojlanishiga asosiy turtki bo'ldi. Bu jarayonlar esa bevosita Amir Temur nomi va uning faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. O'sha davrda Markaziy Osiyoda ilmiy va adabiy faoliyati uchun qulay sharoit yaratilganligi tufayli ko'plab olimlar bu yerda xotirjam yashab, barakali ijod qildilar. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanga bo'lgan qiziqishning o'sishi ma'naviy madaniyatning yuksalishiga, ishlab chiqarish va hunarmandchilikning o'sishiga yordam berdi. Jumladan, Amir Temur Sharqning turli mamlakatlaridan zabardast olimlarni, hadisshunos va muarrixlarini o'z yurti shaharlariga taklif qilar ekan, ularga katta imkoniyat va moddiy sharoitlar yaratgan. Eng taniqli olimlarni madrasalarga ishga taklif qilgan. Bu xususida, X.Vamberi o'zining qaydlarida, Kesh madrasalarida dars o'tuvchi mudarrislar maoshi ancha baland bo'lganligi bildirib o'tadi. Sharafiddin Ali Yazdiy Kesh shahrining Amir Temur davlatida madaniy markazlardan biri sifatida tanilishi borasida fikr yuritarkan, uning o'tmishiga ham biroz nazar tashaydi. Bu shaharning azaldan ilm-fan rivoj topgan manzil ekanligini katta qoniqish bilan qayt etadi. U bu haqda quydagilarni yozadi: "Ba'zi bir tarixiy kitoblarda aytilishicha, Kesh shahri qadimdan islomning buyuk ulamolari yig'ilgan joy bo'lgan. Ulardan taniqli muhaddislar uch



mutabar imom: Abu-Muhammad Abda' ibn Xamid ibn Nasr al-Keshiy, Abdulloh ibn Abdurahmon ad-Doromiy va Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil kabilar shu yurtidan yetishib chiqqan din ulamolaridandir.[4] O'sha davrlarda ilm ahli ularning bilim va fazilatlarida bahramand bo'lmoq uchun mana shu muborak shaharga yig'ilgan. Sharqdan bu hududga Iroqlik, dinshunos olim Abu-u-Xusayn Muslim ibn Xojjoj al-Nishoburiy bu yerga kelib, Abda' ibn Xamid al-Keshiydan bilim olgan edi. Imomlar va fozil kishilardan ko'plari shu yerda jam bo'lgan edilar. Ularning barchasiga dars o'tishlari uchun joylar ajratilgandi. Shuning uchun ham Kesh shahriga "Qubbat al-ilm va-l-adab (Ilm va Odob qubbasi) deb nom berilgan."Shahrisabz hududiga boshqa yurtlardan tolibi ilmlarning kelishi Amir Temur saltanati yillariga to'g'ri keladi. Shahrisabzga Movarounnaxrning taniqli mudarrislari kelib o'rnatishganligi va tahsil berganligi bu joydan keyinchalik mashhur olimlarning yetishib chiqishiga zamin hozirladi.Bunda diqqatga sazovor tomoni shundaki, turli hududlardan kelgan olimlarning bir hududda to'planishlari ularni birlarining ijod namunalarida bahramand bo'lish imkonini berdi.[5] Shu sababli vohada turli sohalar, hatto diniy ilmlarning ham rivojlanishida voha olimlarining o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda, Xoja Jaloliddin Keshiyni tilga olish joizdir. Aynan u temuriylar davrida shariat bilimlariga o'zining yorqin ijodini qo'shdi va diniy bilimlarning rivojlanishiga zamin yaratdi desak adashmagan bo'lamiz. Keyingi davrlarga qaraydigan bo'lsak, Amir Temurning suyakli nabiralaridan Mirzo Ulug'bek davrda fozil va mashhur olimlari yashab ijod qilganlar. Ulardan Alloiddin Shomiy, Muhammad Olim, Fazlilloh kabilardir. Ular bilan suhbatda bo'lib, tarix ilmiga juda katta ixlosmand bo'lgan. Sharq va jahon tarixini teran bilgan Xafiz Abru, Ibn Xaldun singari muarrixlar olimlarning bilim doirasiga qoyil qolgan.Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnomasida keltirilishicha, Amir Temur harbiy yurishni amalga oshirgan yurtlarda tinchlik sulhini taklif qilishda ular bilan do'stona aloqalarni o'rnatishda mamlakatning taniqli olimlarini, din arboblari ham jalb etadi. Shunday sulh allomalardan biri shahrisabzlik Mavlono Jaloliddin Keshiy bo'lgan. U sarmahsul ijodi bilan o'z davrida mavjud bo'lgan nizo va kurashlarga faqat xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda samarali kelishuvlarga erishgan. Bu esa diplomat olimning o'z sahasining yetuk bilimdonlaridan biri ekanligini anglatadi. XIV-XV asrlarda Shahrisabzda barcha soha vakillari singari shoirlar ham o'zlarining faoliyatlarini olib borgan Shoirlar haqida so'z borganda Mavlono Soyiliy



o‘zining yorqin ijodi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shoir XV asrning 60-yillarida Qarshi shahrida yashagan va Alisher Navoiy nazariga tushgan shoirlardan biri bo‘lgan. Mavlono Soyiliy (soyil-savol qiluvchi, gado) taxminan XV asrda o‘rtalarida Qarshida tug‘ilgan. U o‘zining bir kunda besh yuz baytni osonlik bilan ko‘chirishi bilan shuhrat qozongan. Bu davrda Shahrisabzda barcha sohalar kabi me‘morchilik ham ortda qolmadi. Bunda shaharda me‘morchilik sohasida o‘zlarining yorqin ijod namunalari ko‘rsata olgan ustalarning ham o‘rni beqiyosdir. Shulardan biri Shohizindaning chamaniy naqshli ustunlaridan birida qarshilik Olim Nasafiy va Ali Nasafiyar ismi sharifi mozaikalar bilan bitib qo‘yilgan. Ali Nasafiy XIV asrda yashagan atoqli me‘mor va mohir quruvchidir. O‘z davrining eng mashhur binolarini barpo etishda qatnashib, Nasafdagi Odina masjidi va boshqa bir qator me‘moriy inshootlar uning rahbarligida qurilgan Samarqanddagi Shohi Zinda qadamjosining maqbaralaridan birining tarixini chizgan va 1370-1380 yillarda bu maqbara uning ishtirokida qurib bitkazildi. Bu mohir ustaning qo‘llari bilan o‘rnatilgan naqshlar olti asrdan ziyodki, o‘zining tarovatini, rangini yo‘qotmagan. U o‘zining barcha me‘morchilik sohasidagi ilmlarini shogirdlariga o‘rgatdi va o‘limidan keyin uning ishlari davom ettirildi. Bu davrda Qashqadaryo vohasida islom tarixshunos olimlarining mashhur vakili, Xoja Abdulxoliq G‘ijdivoniy asos solgan mashhur Xojag‘on tariqatining Kesh vohasidagi davomchisi Shamsiddin Kulol al-Keshiydir. U Amir Said Kulolning shogirdlaridan biri bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Shamsiddin Kulol Amir Kulolning “ashobi kiborlaridan” biri ekanligi, u Qarshidan Hijozgacha piyoda safar qilib, o‘sha davrdagi iroqlik mashhur shayxlar bilan hamsuhbat bo‘lganligi qayd etiladi. Shayx Shamsiddin Kulol Amir Temurning otasi Amir Tarag‘ayning piri bo‘lgan. Buyuk sohibqiron ham uni o‘zining ma‘naviy ustози deb bilgan. Demak, Amir Temur yoshlik yillaridayoq tasavvuf shayxining suhbatlaridan bahramand bo‘lgan. Shamsiddin Kulol Movarounnahr saltanati Amir Temur qo‘liga o‘tishidan bir necha yil oldin vafot etdi. Sohibqironning ko‘rsatmasi bilan 1373 yilda Shamsiddin Kulol maqbarasi Shahrisabzga qo‘yiladi va keyinchalik Amir Temurning otasi ham bu yerga olib kelingan. Bunda jahonning turli mamlakatlaridan olib kelingan ilm va san‘at ahlining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Nasaf va Keshliklar Amir Temur armiyasining o‘zagini tashkil etish bilan birga, ilm, fan, Kastiliya qiroli Genrix III saroyida katta hurmat e‘tibor bilan kutib olinadi. U saroydagi va yirik zodagonlar qasridagi qabullarda ishtirok etadi va shu bilan birga

xalqning tili va urf odatlarini o'rganadi. Tabiiyki, Kastiliya va unga qo'shni Yevropa davlatlarining kuch-qudrati, o'zaro aloqalari xususida ham ma'lumotlar yig'adi. Olim bu mamlakatda bir necha oy qolib unga Genrix III 1403-yilda qaytishga ruhsat berganidan so'ng Xoji Muhammad va uning hamrohlari Balx shahri yaqinida Amudaryodan o'tib, Termiz, Shahrisabz shaharlari orqali 1404-yilning avgust oyida Samarqandga yetib keladilar.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabz ulkan saltanatning yirik shahriga, barlos bekларining yozgi qarorgohiga aylantirilgan, shuningdek Temuriylar davrida shaharlarning ansambllarmajmuiy qurilishi keng tarqalgan, bu Shahrisabzda ham yaqqol ko'rinadi, bu yerda Dorus-Tilovat va Dorus-Saodat ansambllari ajralib turadi. Dorus-Tilovatni sobiq mahalliy xonaqohlar maqbarasida saqlanib qolgan uchta inshoot tashkil etadi. Bu Shamsiddin Kulol va Gumbazi Seyidon maqbaralari hamda Ko'k Gumbaz jome' masjidi inshootlaridir. Shamsiddin Kulol maqbarasi eng birinchi qurilgan Shayx 1370-yilda vafot etgan bo'lib, uning qabri izzat-ehtirom qilingan. Uning yonida Gumbazi Seyidon-Sayidlar gumbazi nomli Ulug'bek avlodlarning maqbarasi qurilgan. Bu bino kichik bo'lishiga qaramay, o'zining nafis mutanosibligi va chuqur o'ymakor naqshlar bilan qoplangan, ajoyib ishlangan kirish eshigi bilan insonni mahliyo qiladi. Me'morchilik ansamblini mo'g'ullargacha bo'lgan qurilish poydevorida qad ko'targan Ko'k Gumbaz jome' masjidi tugallaydi. Temuriylar davrida qurilgan Oqsaroy qasrining peshtoq devori, Dorus-Saodat majmuasi, Ko'k Gumbaz masjidi, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Jahongir maqbarasi, Hazrati Imom masjidi, hamda Chorsu bozori, Chubin madrasasi, Eshonpir, Kunduzak masjidlar kabi me'moriy obidalar saqlanib qolgan. Shuningdek, Temuriylar davrida Oqsaroy majmuasi ham qurilgan bo'lib, barpo etilgan barcha inshootlar orasida eng antiqasi hisoblanadi. Ispan elchisi Klavixo o'z kundaligida shaharda ko'plab mahobatli binolar va masjidalar borligini hamda qurilayotganini ta'kidlaydi, lekin Shahrisabz faqatgina buyuk amirning, taxt zomini'' emas, balki Temurning tug'ilishidan ancha ilgari u o'z tarixiga ega edi. VII asrda shaharni arablar qamal qilgan, bir asr keyin esa Kesh shahri Muqanna rahbarligi ostida arablarga qarshi kuchli qo'zg'olonning markazi ham bo'ldi. Qancha qiyinchiliklar va yomon kunlar bo'lmasin xalqimiz ularning barchasini yengib o'tdi

va muayyan bir xalq sifatida shakllandi. Mustaqillik yillarida shahar qiyofasi tubdan o'zgartirildi va qayta qurildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov B. Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 234 b. [1]
2. Nosir Muxammad. Nasab va Kesh allomalari. – Toshkent: G'afur, G'ulom, 2006. – 100 b.[2]
3. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. – Toshkent: Fan, 1995. 87-89 b[3]
4. Sharafiddin Ali Yaazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 176 b.[4]
5. www.ziyonet.uz[5]